

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

IBRAGIMOVA SAULE ORINBAEVNA

**YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING BO‘SH VAQTINI TASHKIL
ETISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Ibragimova Saule Orinbaevna

Yuqori sinf o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish texnologiyasi..... 3

Ибрагимова Сауле Орынбаевна

Технология организации свободного времени учащихся старших классов..... 27

Ibragimova Saule Orinbaevna

Technology of free time organization of high school students..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

IBRAGIMOVA SAULE ORINBAEVNA

**YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING BO‘SH VAQTINI TASHKIL
ETISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2022.2.Phd/Ped 3357 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ndpi.uz) hamda “ZiyoNET” ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Pazilov Arzi Kenjebayevich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Adizov Baxtiyor Raxmonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “20” III soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230105, Nukus shahri, P. Seytov ko‘chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (+998) 61-229-40-75; faks: (+998) 61-229-60-78; e-mail: nkspi_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (121 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko‘chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (+998) 61-22-40-75; faks: (+998) 61-229-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil “7” III da tarqatildi.
(2025- yil “7” III dagi 121 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.P. Otemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.m.f.d., professor

Z.K. Korbaniyazova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor

A.K. Berdimuratova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kiber ijtimoiylashuv sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy tahdidlardan himoyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida insonning o'zligini anglashiga erishish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD) tomonidan o'tkaziladigan o'quvchilarning savodxonligini baholashga yo'naltirilgan PISA (The Programme for International Student Assessment) xalqaro dasturida ta'lim oluvchilarining bo'sh vaqtini samarali tashkil etish ularda strategik fikrlashni rivojlantirishi va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi alohida qayd etilgan. AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi davlatlarda ta'lim oluvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etishga qaratilgan loyihalar ijtimoiy-madaniy faollikni oshirishga muhim ustuvorlik kasb etadi.

Dunyoda "bo'sh vaqt" ("free time") fenomenining zamonaviy sharoitda ifoda qilinishining sotsiologik, psixologik va pedagogic jihatlarini aniqlashtirish, taym-menejmenti asosida o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etishning pedagogic mexanizmlarini takomillashtirish, ta'lim oluvchilarning ijtimoiy-madaniy faoliyatini tashkil erishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bo'sh vaqtni samarali o'tkazishda intellektual va ishchanlik o'yinlaridan foydalanish, ivent-texnologiyasi asosida voqeiylikka asoslangan tadbirlarni tashkil erishning kontseptual-korporativ asoslarini tadqiq etish, "Homo sapiens (aqlli inson)" va "Homo faber (yaratuvchi inson)" bilan birga "Homo ludens (o'ynayotgan inson)" tendensiyasiga muvofiq bo'sh vaqtni tashkil etishda kvestlarni faol ravishda qo'llash muhimlik kasb etadi.

Mamlakatimizda umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni yangi sifat bosqichiga olib chiqish, yosh avlodni milliy, ma'naviy-axloqiy, intellektual qadriyatlar asosida tarbiyalashning raqamli jamiyatga mos yangi shakl va usullarini joriy etish, yoshlarning har tomonlama kamol topishi uchun majmuaviy chora-tadbirlarni o'z ichiga oladigan beshta muhim tashabbusni tatbiq etishga katta e'tibor qaratilmoqda. "O'quvchilarining bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish maqsadida hamda qiziqishlari va talablarini e'tiborga olgan holda yuqori sinflarda majburiy va tanlov fanlarni joriy etish, 10-11-sinf o'quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan, shu jumladan ijtimoiylashuvga, iqtidor va kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan o'quvchilarining kasbiy o'qitish imkoniyatlarini kengaytirgan holda ta'lim berishni rivojlantirish"¹ muhim ustuvorlik kasb etadi. Bu esa, innovatsion rivojlanish sharoitida yuqori sinf o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish mazmunini yoritib berish, yuqori sinf o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik modelini takomillashtirish, yuqori sinf o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-con farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 29.04.2019 y.

etishning samarali texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatib berishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2022 yil 11-apreldagi PQ-201-son "Mahallada yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 781-son "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyat bilan bog'liq boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda shaxsning bo'sh vaqti, shaxsning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish, sinfdan va darsdan tashqari ishlarni o'tkazish yo'llarini takomillashtirish, ta'lim oluvchilarning ijtimoiylashuvini ta'minlash muammolari bo'yicha O.Musurmonova, N.Nishonova, U.Aleuov, M.Quronov, N.Egamberdiyeva, T.Utebayev, Z.Kurbaniyazova, M.Pazilova, M.Isomov, B.Karimov, J.Pardaboyev, U.Utanov, M.Tilakova, A.Turdialiyev, A.Pazilov, A.Tilegenov, T.Jiyemuratov kabilar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan K.Abulxanova-Slavskaya, Ye.Agranovich, Yu.Azarova, G.Arxaangelskiy, A.Asmolov, N.Bocharova, G.Kogan, A.Danilova, G.Zaxarenko, I.Isayeva, N.Yejkova, T.Limonchelli, D. G Morgenstren, Z.Saitgaliyeva, A.Skovorodkin kabilar ta'lim oluvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish, taym-menejment asosida vaqtga doir kompetentsiyani shakllantirish, korporativ madaniyatni rivojlantirish, "event-texnologiya" asosida yoshlar va bolalarning darsdan tashqari hamda bo'sh vaqtini tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslarini tadqiq etishgan.

Xorijlik olimlardan D.Livazović, G.Livazović va S.Kakuk, V.Valjan Vukić, D.Hanžek, A.Gvozdanić, B.Perasović, M.Rattinger, A.Dragun kabilar bo'sh vaqt va o'quvchilarining qadriyatlar tizimi, bo'sh vaqtni tashli etish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, bolalarning bo'sh vaqtini tashkil etishda oilaning o'rni va roli, kreativ ishlarni bajarishda bo'sh vaqtning ahamiyati singari masalalarni o'rganishgan.

Biroq “bo‘sh vaqt” tushunchasining mohiyatini ochib berish orqali mazkur jarayonning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish, innovatsion rivojlanish sharoitida yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish masalalari maxsus tadqiq etilmagan. Ana shu sababli bizgacha kam tadqiq etilgan ilk o‘spirinlik yosh davri – yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etish texnologiyasini takomillashtirishga doir maxsus ilmiy izlanish olib borish lozim degan xulosaga kelindi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Uzluksiz ta’lim tizimida III-Renessans davriga mos yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish” ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuqori sinf o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“bo‘sh vaqt” tushunchasining mohiyatini ochib berish orqali mazkur jarayonning psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlashtirish;

innovatsion rivojlanish sharoitida yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish mazmunini yoritib berish;

yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sha vaqtini tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik modelini takomillashtirish;

yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etishning samarali texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini ko‘rsatib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtlarini tashkil etish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Qoraqalpog‘iston Respublikasining To‘rtkul tumanidagi 30-, 5-, Nukus shahridagi 38-, 43-, Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi 6-, 24-, Toshkent shahrining Yashnobod tumanidagi 204-, 244-umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan 461 nafar 10-11-sinf o‘quvchilari jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni o‘rganish, korrelyatsion tahlil, anketa, kuzatish, test, suhbat, pedagogik eksperiment, ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etishning psixologik-pedagogik xususiyatlari texnologik yondashuvning kooperatsiya, boshqaruv, yo‘naltiruvchi natijalarining shaxs ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladigan yaxlitlik, maqsadga muvofiqlik, funksional birlik kabi tarkibiy asoslar bilan qayta aloqasi intensivligini bevosita hisobga olish orqali aniqlashtirilgan;

o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etish mazmuni Internet-ijtimoiylashuv sharoitida ijtimoiy-foydali faoliyat turiga jalb etish orqali stressga chidamlilik, tolerantlik, irodaviylik, nekinlik kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan

ta'limiy muhitni maqsadli loyihalash mantiqiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

yuqori sinf o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish modelining texnologik komponenti korporativ madaniyat va o'qitish tizimining qadriyatli yo'naltirilgan ustanovkalarining barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan "event – rolli maqom – kontingent – ta'sir – nazorat" zanjiriga muvofiq ijtimoiy-foydali faoliyatni tashkil etishning produktogenligini empirik asoslash orqali takomillashtirilgan;

yuqori sinf o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etishning event texnologiyasi "start – harakat – risk profilaktikasi – xulosa" fazalariga muvofiq ijtimoiy-madaniy tadbirlarni tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan ehtimoliy risklar va ularning oldini olishga qaratilgan faoliyatning tizimli-strukturali tahlil variantlarini ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Bo'sh vaqtni tashkil etish" nomli to'garak dasturi ishlab chiqilgan;

"Barkamol avlod" maktablari uchun "Yosh ekskursovod" to'garak dasturi va rejasi ishlab chiqilgan;

"Yuqori sinf o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish" nomli dasturiy ta'minot (№ DGU 41591) yaratilgan;

o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil qilishning diagnostik vositalari (anketa, so'rovnoma) ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo'llanilgan yondashuv, usullarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, respublikamiz va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlariga tayanilganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "bo'sh vaqt" fenomenining ijtimoiy, psixologik va pedagogik jihatlarning aniqlashtirilganligi, yuqori sinf o'quvchilarining bo'sh vaqtini samarali tashkil etish dolzarb pedagogik muammo ekanligining asoslanganligi, o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etishning psixologik-pedagogik xususiyatlarining aniqlashtirilganligi, Internet-ijtimoiylashuv bilan bog'liqlikda o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish mazmunining yoritib berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish modeli va mualliflik yondashuviga asoslangan lokal-modulli texnologiyaning loyihalanganligi hamda tasnifiy belgilarining oydinlashtirilganligi, korporativ madaniyat va o'qitish tizimining qadriyatli yo'naltirilgan ustanovkalarining barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan event-texnologiyasi va kvestlardan maqsadli foydalanish yo'llarining ko'rsatib berilganligi, "Bo'sh vaqtni tashkil etish" nomli to'garak dasturining didaktik ta'minotining yaratilganligi, yuqori sinf o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etishga doir ilmiy-metodik tavsiyalarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil qilish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida:

yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etishning psixologik-pedagogik xususiyatlarini texnologik yondashuvning kooperatsiya, boshqaruv, yo‘naltiruvchi natijalarining shaxs ma‘naviy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladigan yaxlitlik, maqsadga muvofiqlik, funksional birlik kabi tarkibiy asoslar bilan qayta aloqasi intensivligini bevosita hisobga olish orqali aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Respublika ta‘lim markazining 2022-yil 12-oktabrdagi 01/11-02/02-1621-son ma‘lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil qilishning kontseptual asoslarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etish mazmunini Internet-ijtimoiylashuv sharoitida ijtimoiy-foydali faoliyat turiga jalb etish orqali stressga chidamlilik, tolerantlik, irodaviylik, nekbinlik kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan ta‘limiy muhitni maqsadli loyihalash mantiqiga ustuvorlik berish asosida, yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etishning modelining texnologik komponentini korporativ madaniyat va o‘qitish tizimining qadriyatli yo‘naltirilgan ustanovkalarining barqarorligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan “event – rolli maqom – kontingent – ta‘sir – nazorat” zanjiriga muvofiq ijtimoiy-foydali faoliyatni tashkil etishning produktogenligini empirik asoslash orqali takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalardan “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutining 2024-yil 25-iyuldagi 01/09-916-son ma‘lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan;

yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etishning event texnologiyasini “start – harakat – risk profilaktikasi – xulosa” fazalariga muvofiq ijtimoiy-madaniy tadbirlarni tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan ehtimoliy risklar va ularning oldini olishga qaratilgan faoliyatning tizimli-struktur tahlil variantlarini ishlab chiqish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida 2021-yilda amalga oshirilgan “Uzluksiz kasbiy rivojlantirish – 2022” amaliy loyihasining o‘qituvchilarni o‘quvchilarining ijtimoiy-madaniy faoliyatini tashkil etishga tayyorlash qismini bajarishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutining 2024-yil 25-iyuldagi 01/09-916-son ma‘lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etishning innovatsion mexanizmini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“O'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish dolzarb pedagogik muammo ekanligi, o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilishi, muammoning amaliyotdagi holati yoritib berilgan.

Bugungi globallashtirish va tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan murakkab va shiddatli davrda o'sib kelayotgan avlodni har tomonlama kamol toptirish, jismonan sog'lom, komil inson etib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yilning mart oyida ilgari surilgan besh tashabbus o'quvchilarining bo'sh vaqtini samarali tashkil etishning milliy o'zbek modelini o'zida ifoda etadi: birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish; ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasidagi qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoit yaratib berish; uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar orasida kompyuter texnologiyalari va Internetdan foydalanishni tashkil etish; to'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish; beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash ishlarini tizimli tashkil etish.

Raqamli transformatsiya sharoitida ayniqsa uchinchi tashabbus alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki o'quvchilarining shaxsiy ijtimoiylashuvi raqamlashgan makonda sodir bo'lmoqda. Bu jarayon esa, turlicha nomlar bilan atalmoqda: “Internet-ijtimoiylashuv”, “kiber ijtimoiylashuv”, “raqamli ijtimoiylashuv”, “axborot ijtimoiylashuvi” va boshqalar. Garchi kiber ijtimoiylashuv xorijiy tadqiqotlarda insonning elektron muloqot madaniyati sifatida keng o'rganilgan bo'lsa ham ko'proq virtual ijtimoiylashuv tarzida talqin qilinadi. Ana shu sababli tadqiqot doirasida “Internet ijtimoiylashuv” tushunshasini qo'llash o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq deb topildi. Internet ijtimoiylashuvi axborot madaniyatini o'zlashtirish

orqali o'quvchining ijtimoiy tajribasini kengaytirish bo'lib, u ham ijobiy, ham salbiy tavsifga ega bo'lishi mumkin. Salbiy Internet ijtimoiylashuv kontent, kommunikatsiya, electron tahdid, iste'molchilik muomala va Internet qaramlik risklari orqali sodir bo'lishi mumkin. Bu esa, o'quvchilarining bo'sh vaqtini mazmunli, xavfsiz va samarali tashkil etish muammosiga ilmiy yechim topishni taqozo etadi.

Dastlab tadqiqot doirasida "bo'sh vaqt" fenomenining o'ziga xos jihatlarini yoritib berishga alohida e'tibor qaratildi.

"Pedagogika" ensiklopediyasida bo'sh vaqt tushunchasi quyidagicha talqin qilingan: "Bo'sh vaqt – odamning tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy majburiyatlaridan tashqaridagi, uning shaxs sifatidagi ma'naviy-jismoniy kamolotini ta'minlash uchun o'z ixtiyori bilan tasarruf qilinishi mumkin bo'lgan vaqt. Yoshi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar har qanday odamning kundalik hayotini ish vaqti va ishdan tashqari vaqt tarzida ikkiga ajratish mumkin. Ish vaqti insonning ijtimoiy-tashkiliy faoliyatida ishtirok etgan vaqtini anglab ish kuni, ish haftasi, ish oyi, ish yili bilan o'lchanadi. Balogat yoshidagilardan tashqari kichik yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti, o'quvchilarining maktabdagi, talabalarning oliy ta'lim tashkilotidagi faoliyati ham ish vaqti hisoblanadi. Ishdan tashqari vaqt shartli ravishda uyqu, dam olish, ovqatlanish, o'ziga qarash, uy ishlari bilan shugullanish, bo'sh vaqt singari turlariga ajratish mumkin".

Inglizcha bo'sh vaqt (LEISURE) so'zi lotin tilidan (LIGERE) kelib chiqqan bo'lib, "erkin bo'lish" degan ma'noni anglatadi. Lotin tilidan fransuz tiliga (LOISIR), bu "ruxsat berish" degan ma'noni anglatadi va ingliz tiliga "erkin bo'lish" (qoida, amaliyot va boshqalarni rad etish erkinligi) (LICENSE) tarzida talqin qilinadi. Bu so'zlarning barchasi turdosh bo'lib, tanlash va majburiy emaslikni anglatadi. Qadimgi Yunonistonda bo'sh vaqt (SCHOLE) so'zi "zarurat bosimisiz jiddiy faoliyat" degan ma'noni anglatadi. Inglizcha atama (SCOOL) yunoncha SCHOLE (bo'sh vaqt) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bo'sh vaqt va ta'lim o'rtasidagi yakuniy bog'liqlikni bildiradi.

Bizning tadqiqot ishimizda "bo'sh vaqt" yuqori sinf o'quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirish, uning dunyoqarashi va ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun maqsadli ta'sir o'tkazish uchun muhim salohiyatga ega bo'lgan muayyan vaqt bilan bog'liq makon sifatida talqin qilindi. Shu tariqa u vaqt omilidan ajralgan holda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga bag'ishlangan pedagogik tadqiqotlardan farq qiladi. Yanada aniqroq aytganda, bo'sh vaqt – bu shaxsni shakllantirishning eng muhim omili, faollikning jadallashuvi, o'ziga xos mexanizmlariga ega fenomen.

"Bo'sh vaqt" va "o'quvchining bo'sh vaqti" muammolarini tahlil etishda to'rt jihat yaqqol ajralib turadi: sotsiologik, psixologik, pedagogik, gigiyenik. Sotsiologlar bo'sh vaqtning shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun makon sifatida talqin qilishadi. Psixologlar maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtga subyektiv munosabatlari, ularning vaqtning idrok etishi va anglashini o'rganadi. Pedagogika bo'sh vaqtda o'qitish va tarbiyalash jarayonlari, shuningdek, shaxsga ta'sir ko'rsatish shakllari, metod va vositalarini ishlab chiqadi. Gigiyenik jihat ish

qobiliyatini tiklash uchun bo'sh vaqtni oqilona tashkil etish va foydalanishni o'z ichiga oladi.

Tahliliy materiallarga asoslanib real (ijtimoiy foydali) va xayoliy (asosial, shaxsiy ahamiyatga ega) bo'sh vaqtni ajratib ko'rsatish mumkin. Real bo'sh vaqtni o'tkazish hech qachon shaxsdan ham, jamiyatdan ham ajratilib ko'rsatilmaydi. Aksincha, bu faoliyat holati, zarur kundalik faoliyatdan erkinlik yaratish, dam olish, o'z-o'zini anglash, ko'ngil ochish uchun vaqt. Xayoliy bo'sh vaqt vaqtini o'tkaza olmaslikdan iborat hisoblanib, bu vaqtni maqsadsiz o'tkazish bilan bog'liq bo'lib, g'ayrioddiy xatti-harakatlarga olib keladi.

O'quvchilarining bo'sh vaqtining quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) bo'sh vaqt yaqqol ifodalangan fiziologik, psixologik va ijtimoiy jihatlarga ega;
- 2) bo'sh vaqtni o'tkazish mashg'ulot turi va faollik darajasini tanlashda ixtiyoriylikka asoslanadi;
- 3) bo'sh vaqt tartibga solinmagan, balki erkin ijodiy faoliyatni o'z ichiga oladi;
- 4) bo'sh vaqtni o'tkazish shaxsni shakllantiradi va rivojlantiradi;
- 5) bo'sh vaqt erkin tanlangan harakatlar orqali shaxsning o'zini namoyon qilishi, o'zini o'zi tasdiqlashi va rivojlanishiga yordam beradi;
- 6) bo'sh vaqtni o'tkazish o'quvchilarining erkinlik va mustaqillikka bo'lgan ehtiyojini shakllantiradi;
- 7) bo'sh vaqtni o'tkazish tabiiy qobiliyatni ro'yobga chiqarish va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi;
- 8) bo'sh vaqt bolalarning ijodiy tashabbusini rag'batlantiradi;
- 9) bo'sh vaqt – bu shaxsning ehtiyojlarini qondirish sohasi;
- 10) bo'sh vaqt qadriyatli yo'nalishlarni shakllantirishga yordam beradi;
- 11) bo'sh vaqt ichki va tashqi jihat bilan belgilanadi;
- 12) bo'sh vaqt o'ziga xos “katta yoshdagilarning cheklangan aralashuvi zonasi” sifatida ishlaydi;
- 13) bo'sh vaqt o'quvchilarining obyektiv jihatdan o'z-o'zini qadrlashiga yordam beradi;
- 14) bo'sh vaqt ijobiy “Men-konsepsiya”sini shakllantiradi;
- 15) bo'sh vaqt qoniqish, quvnoq kayfiyat va shaxsiy zavqni ta'minlaydi;
- 16) bo'sh vaqt shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashiga yordam beradi;
- 17) bo'sh vaqt shaxsning ijtimoiy ahamiyatli ehtiyojlari va jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlarini shakllantiradi;
- 18) bo'sh vaqt – to'liq dam olishga qarama-qarshi bo'lgan faoliyat;
- 19) o'quvchilarining bo'sh vaqtlari bo'sh vaqt va yarim bo'sh vaqtga bo'linadi.

Shunday qilib, o'quvchilar bo'sh vaqtining mohiyati muayyan makon-vaqt muhitidagi ijodiy xulq-atvori (atrof-muhit bilan o'zaro munosabati), mashg'ulot turi va faoliyat darajasini tanlashda erkin bo'lib, ichki (ehhtiyojlar, motivlar, ustanovkalari, xulq-atvorning tanlov shakllari va usullari) va tashqi (xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omillar) jihatlar bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning **“Yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etishning amaliy-texnologik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida yuqori sinf o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etish mazmuni, mazkur jarayonni amalga oshirish modeli va texnologiyasi yoritib berilgan.

Mazmunan o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini bir nechta guruhlariga (S.A.Shmakov) ajratish mumkin. Birinchi guruh bolalarning jismoniy kuch-quvvatlarini tiklash bilan bog‘liq bo‘lib, toza havoda yurish, sport, dam olish kechalari, vaqtichog‘lik, o‘yin-kulgi kabilarni o‘z ichiga oladi. Sport, harakatlantiruvchi faoliyat bolalarning jismoniy faolligini oshirib, sog‘lig‘i, chidamliligi, epchilligini rivojlantirishga yordam beradi.

Bo‘sh vaqtning ikkinchi guruhi o‘quvchilarining bilim darajasini oshirish, ularning ma‘naviy qadriyatlar tizimini o‘rganish bilan bog‘liq. Bu guruh mutoala, filmlar va teleko‘rsatuvlarni tomosha qilish, ko‘rgazmalar, muzeylarga tashrif buyurish, sayohat, safarga chiqish va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bo‘sh vaqtni o‘tkazishning ikkinchi guruhi mazmuni bolalarning bilim faolligini rag‘batlantiradi, umuminsoniy madaniyat, tarixiy, adabiy qadriyatlarni o‘zlashtirish, bolalar dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi.

Uchinchi guruh ma‘naviy kuch va qobiliyatlarni rivojlantirish, ijodiy faoliyat bilan bog‘liq. Ushbu bo‘sh vaqtning mazmun-mohiyati ilmiy-tadqiqotchilik, badiiy va teatr, texnik, sport va o‘yin, mehnat va amaliy faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bolalarning ushbu bo‘sh vaqtni o‘tkazish guruhiga qo‘shilishi ularda faol hayotiy nuqtai nazarni rivojlantiradi, shaxsning o‘z o‘rnini belgilashi, ijodiy faoliyatda o‘zini namoyon qilishiga yordam beradi.

To‘rtinchi guruh muloqotga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Ushbu guruh uchrashuvlar, raqslar, kechalar, ijodiy uyushmalar, klublar, to‘garaklarni o‘z ichiga oladi. Kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi, bolaning shaxslararo o‘zaro aloqaning turli usullaridan foydalanish, xilma-xil ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatini shakllantiradi.

Beshinchi guruh bolalarni maqsadli kreativ faoliyatga yo‘naltirish bilan bog‘liq. Mazkur guruhga ko‘chma oromgohlar, ko‘rik-tanlovlar, ta‘tillar, turistik sayohatlar, liderlar maktablari kabilarni kiritish mumkin. Bolani bo‘sh vaqtni tashkil etishning beshinchi guruhiga jalb etish ularda liderlik qobiliyatini rivojlantirish, o‘z bo‘sh vaqtini mustaqil ravishda tashkil etish va tengdoshlarini mazmunli mashg‘ulotlarga jalb qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Har qanday faoliyat uning rivojlanishining umumiy qonuniyatlariga asoslanadi. O‘quvchilarining bo‘sh vaqtlari nazariy jihatdan asoslangan va amaliyotda sinab ko‘rilgan o‘z qonuniyatlari, tamoyillari bo‘yicha rivojlanadi.

O‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etish tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. Umumiylik va qulaylik tamoyili – ya‘ni yosh avlodning ijodiy salohiyati, ularning bo‘sh vaqtga bo‘lgan talab va ehtiyojini qondirish maqsadida o‘quvchilarni istisnosiz bo‘sh vaqtni tashkil etish muassasalari faoliyatiga jalb qilish va ishtirok etish imkoniyati.

2. Havaskorlik tamoyili – bolalarning bo‘sh vaqtlarining barcha, havaskorlar uyushmasidan ommaviy bayramgacha bo‘lgan darajalarida amalga oshiriladi. Havaskorlik shaxsning muhim xususiyati sifatida har qanday individual va jamoaviy faoliyatda yuqori darajadagi muvaffaqiyatni ta’minlaydi. Havaskorlik tamoyili o‘quvchilarining ijodiy faolligi, ishtiyoqi va tashabbusiga asoslanadi.

3. Individual yondashuv tamoyili – o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etishda ularning individual ehtiyoj, qiziqish, mayl, qobiliyat, imkoniyat, psixofiziologik xususiyatlari va ijtimoiy muhitini hisobga olishni nazarda tutadi. Differensiallashgan yondashuv bo‘sh vaqtdagi harakatning har bir ishtirokchisining qulay holatini ta’minlaydi.

4. Tizimlilik va maqsadga yo‘nalganlik tamoyili – o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etishga qaratilgan barcha ijtimoiy institutlar faoliyatida uzluksizlik va o‘zaro bog‘liqlikni rejali va tartibli uyg‘unlashtirish asosida ushbu faoliyatni amalga oshirishni nazarda tutadi.

5. Ketma-ketlik tamoyili – birinchi navbatda, avlodlarning madaniy o‘zaro aloqalari va o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi. Ota-onalar, barcha yaqin kattalar bo‘sh vaqtini oqilona o‘tkazish uchun o‘quvchilarga ijtimoiy bilim va tajriba, uning falsafasini yetkazib berish kerak.

6. Qiziqtirish tamoyili – barcha bo‘sh vaqtni o‘yin va teatrlashtirish asosida qurish orqali erkin emotsional muloqotni yaratishdan iborat, chunki formallik, so‘nish, emotsional jozibadorlikning yo‘qligi ishning har qanday shakl va usullarining muvaffaqiyatsizligiga olib kelishi mumkin. Bolalarning bo‘sh vaqtlari rang-barang bezatilgan bo‘lishi va turli xil atributlar bilan to‘ldirilishi kerak.

O‘quvchilarining ijtimoiylashuvdagi tasodifiy holatlarning oldini olish uchun oila, maktab va boshqa ijtimoiy institutlarning bo‘sh vaqtni tashkil etish bo‘yicha kooperatsiyasini ta’minlash muhim ustuvorlik kasb etadi.

Oila inson potentsiallarining to‘g‘ri rivojlanishi uchun asoslar, shuningdek, makro va mikroguruhlardagi o‘ziga xos rollar va munosabatlar shakllanadigan, inson tabiiy xususiyatlarining boshlang‘ich rivojlanishining manbai sifatida yosh avlodning shakllanishi va rivojlanishiga muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Bo‘sh vaqtni o‘tkazish muassasalari o‘quvchilarining ijtimoiylashuvdagi muhim va samarali omil bo‘lib, o‘z tabiatiga ko‘ra shaxsga ijtimoiylashtiruvchi ta’sir ko‘rsatadigan barcha ijtimoiy institutlarni birlashtira oladigan ko‘p funksiyali va harakatchan tuzilma hisoblanadi. Aynan ijodiy uyushmalar va tashkilotlarning kuchlarini jalb etish bo‘sh vaqtni o‘tkazish muassasalarining o‘quvchilarga ta’sir qilish shakllari va vositalarining xilma-xilligini belgilab beradi.

Umumiylik bilan parallel ravishda yosh avlodning bo‘sh vaqtni o‘tkazish sohasida ijtimoiylashuvini ta’minlaydigan maxsus yoki qo‘shimcha tizim mavjud bo‘lishi mumkin. Ya’ni, bo‘sh vaqtni o‘tkazish orqali o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishning umumiy va maxsus modellarini ajratib ko‘rsatish mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan bo‘sh vaqt orqali o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishning ham umumiy, ham maxsus modellari faoliyati samaradorligini oshirish uchun ommaviy axborot vositalari, teatrlar, kinoteatrlar,

muzeylar, ko'rgazmalar, ma'naviy-ma'rifiy muassasalar kabi tashkilotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot doirasida o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etishning pedagogik modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang). Mazkur model ilmiy modellashtirishning izchillik, normativlik, ilmiylik va universallik tamoyillari asosida shakllantirilgan. Modelda o'quvchining bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilishga nisbatan ijtimoiy buyurtma beshta muhim tashabbus doirasidagi vazifalar ijrosidan kelib chiqib belgilangan.

1-jadval

Bo'sh vaqtni tashkil etish jarayonida o'quvchilarni ijtimoiylashtirish tizimi

Umumiy model	Maxsus model
Bo'sh vaqtni o'tkazishga mo'ljallangan muassasalar	
Oila, maktab	Oila, bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari
Faoliyat turlari	
Dasturlashgan	Ixtiyoriy
Faoliyat yo'nalishi	
Umumiy	Maxsus
Faoliyat shakllari	
Individual, guruh, ommaviy	

Modelning maqsadi raqamlashgan jamiyatda o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishdan iborat. Modelning vazifalari sifatida yuqori sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatga jalb etish; kommunikativ ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan muloqot muhitini qaror toptirish; oila, maktab va boshqa ijtimoiy institutlarning kooperatsiyasini ta'minlash; o'quvchilarni maqsadli kasb tanlashga yo'naltirish va boshqalar.


Modelning metodologik asoslari sifatida tizimli, faoliyatli, insonparvarlik, aksiologik, ijtimoiy-madaniy, konventsial kabi yondashuvlar, umumiylik va qulaylik, havaskorlik, individuallik, tizimlilik va maqsadga yo'nalganlik, ketma-ketlik, qiziqtirish kabi tamoyillar belgilab olingan.

Modelning mazmunli blokini loyihalash uchun o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish bo'yicha 10-11 sinflar uchun "Mening bo'sh vaqtim" to'garak dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur besh bo'limdan iborat tarzda loyihalangan: 1. "Menejment va bo'sh vaqt". 2. "O'yinli dasturlar, diskotekalar, kvestlar tashkil etish va o'tkazish". 3. "Kompyuter savodxonligi". 4. "Bayramga dekoratsiya va atributlarni yaratish". 5. "Yakuniy tadbirni tashkil qilish va o'tkazish".

Modelning tashkiliy-pedagogik bloki o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish texnologiyalari, shakl, metod va vositalarini o'zida aks ettiradi. O'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish jarayonini loyihalash event, kvest hamda mualliflik lokal-modulli texnologiyalari asosida amalga oshirildi. O'quvchilarining bosh vaqtini tashkil etish shakllariga tadbirlar, o'yinlar, treninglar, jamoaviy ijodiy ishlar kiritildi. Bo'sh vaqtni tashkil etishga doir faoliyatni amalga oshirish metodlari sifatida o'yin,

teatrlashtirish, musobaqalashish, hamkorlik, tarbiyalovchi vaziyatlar, improvizatsiya kabilar tanlandi. Vositalar sifatida elektron, dasturiy, OAV, muloqot kabilarga alohida e'tibor qaratildi.

Modelning natijaviy-baholovchi bloki o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish samaradorligini baholashga doir ijtimoiy monitoringni amalga oshirishga qaratilgan. O'quvchilarda bo'sh vaqtga nisbatan qadriyatli munosabatning namoyon bo'lishi maqbul, qisman-izlanishli, minimum darajalarga muvofiq baholanishi ko'zda tutildi.



1-rasm. Yuqori sinf o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etishning pedagogik modeli

Yuqori sinf o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etishning mualliflik texnologiyasini loyihalash uchun tadqiqot predmetiga muvofiq keladigan event va kvest texnologiyalarning pedagogik salohiyatidan foydalanish yo'llarini aniqlashtirish lozim, degan xulosaga kelindi.

“Event” nafaqat shunchaki ommaviy, shaxsiy, axborotli hodisa sanaladi, balki u zamonaviy jamiyatda yaxlit pedagogik jarayon sifatida o'zining ko'p qirraliligi bilan shaxslararo munosabatning ma'lum tamoyillariga asoslangan tizim tarzida, masalan unda jamoa va alohida subyekt hayotidagi real voqealarni yaratish va birgalikda boshdan kechirish orqali insonning hayot yo'lini tashkil etish dinamikasi o'rganilishi mumkin.

“Event” – o'quvchilarining bo'sh vaqtini tashkil etish, yordamchi effektlar orqali har qanday tadbirni shaxs uchun esda qoladigan voqeaga aylantirishga qaratilgan yangi turdagi gumanitar texnologiya. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: shaxsiy so'rovlar, qiziqishlar, istaklarni amalga oshirish (shaxsga yo'naltirilgan texnologiya), idrok etishning ijobiyliigi (shaxsning ijobiy emotsional sohasini rivojlantirish), event-tadbirida shaxsning tashabbuskorligi va faolligi (shaxs – event-tadbirining sub'ekti); vaqtning cheklanganligi, biroq sarflanadigan mablag'lar va resurslar cheklanmaganligi. Uning xususiyatlari axborot, inson, texnik, moddiy resurslardan maksimal darajada foydalanish; event-tadbirlarni (elementlardan foydalanish: teatrlashtirish, animatsiya; imitatsiya, imij yaratish, manipulyatsiya, jamoani shakllantirish va boshqalar) o'tkazishning variativligidan iborat.

O'z tuzilmasiga ko'ra “event-texnologiya” konseptual, mazmunli va tashkiliy-jarayonli qismlarni o'z ichiga oladi. U fazalar va muhim bosqichlarni tizimli ravishda o'zgartirish orqali amalga oshiriladi: initsiatsiya, start, tayyorgarlik, ishga tushirish, harakat, keyingi harakat, xulosa qilish. Event-tadbir uning shakli sifatida namoyon bo'ladi, uning ko'pgina turlari ma'lum. Event-texnologiyasining pedagogik salohiyati (ijtimoiy fenomen – shaxsni rivojlantirish maqsadini ko'zda tutadigan tarbiyaviy, didaktik imkoniyatlar yig'indisi tushuniladi): shaxsiy so'rovlarni amalga oshirish; event-tadbirning ijobiy emotsional tusga kirishi; shaxsning sifat va xususiyatlarini ochib berish, ularning rivojlanishi; kommunikativ madaniyatni shakllantirish va event-tadbiri ishtirokchilari o'rtasida o'rnatiladigan munosabatlar maydonini loyihalash; shaxsga psixoterapevtik yordam; voqeyi tadbirning tarbiyaviy funksiyasining namoyon bo'lishi, atrofdagi voqelikni bilish; shaxsning intellektual sohasini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Event formatida shaxsiy tanlov erkinligi tushuniladi, bo'sh vaqtni o'tkazish madaniyati, uning yo'nalishlari, turlari va shakllarining xilma-xilligi haqidagi bilimlar uzatiladi; o'quvchilarning qiziqishlari ortadi; hayotiy voqelik, xatti-harakatlar namunalari taqdim etiladi; sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini targ'ib qilinadi; olamga, o'z-o'ziga, Men-konsepsiyasiga bo'lgan munosabat shakllanadi; milliy va jahon madaniyati bilan tanishadi; taranglik, tashvish, norozilik kayfiyati bartaraf etiladi; muayyan jamiyatning sub'ekti sifatida inson o'zgaradi, pirovard natijada shaxs rivojlanadi.

Tadqiqot jarayonida event-tadbirlarni o‘tkazishda yuzaga keladigan risklar va ularning profilaktikasi masalasiga ham e‘tibor qaratildi. Event-tadbirlarni tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan risklarni bartaraf etishning taxminiy variantlari 2-jadvalda keltirib o‘tilgan.

Kvest (quest) inglizcha so‘z bo‘lib, tarjimada “qidiruv, topshiriqlarni bajarish” degan ma‘noni anglatadi. Birinchi kvestlar qadimgi sivilizatsiyalar davrida paydo bo‘lgan va insoniyatga uning butun tarixi davomida hamroh bo‘lib kelgan. Kvest – bu jumboq va odamlar har doim topishmoqlarning yechimini topishga intilishgan. Turli vaqtlarda odamlar shifrlangan xaritani qoldirgan qaroqchilar tomonidan ko‘milgan xazinani topishga harakat qilishgan yoki ular baxt keltiradigan ertaknamo daraxt yoki biron bir narsani topish mumkinligiga ishonishgan.

2-jadval

Event-tadbirlarni tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan risklarni bartaraf etishning taxminiy variantlari

Pedagog shaxsiga nisbatan	O‘quvchi shaxsiga nisbatan
Ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarini faol targ‘ib etuvchi sifatida pedagog nufuzini oshirish.	Treninglarni tashkil etish orqali bo‘sh vaqtni samarali o‘tkazish madaniyatini shakllantirish
Bo‘sh vaqtni o‘tkazish holati bo‘yicha monitoringni amalga oshirish.	Shaxsiy qiziqish, mayl, qobiliyatlar monitoringini amalga oshirish
Shaxsni rivojlantirishning an‘anaviy va yangi gumanitar texnologiyalari bankini tuzish.	Shaxsiy qiziqish, mayl, qobiliyatlarini rivojlantirish.
Bo‘sh vaqtni tashkil etish bo‘yicha marketing (reklama) xizmatlarini rivojlantirish.	Bo‘sh vaqtni tashkil etishning an‘anaviy va yangi shakllarini mustaqil topishga o‘rgatish.
Bo‘sh vaqtni tashkil etish bo‘yicha oilaviy an‘analarni o‘rganish, saqlash va uzatish.	Bo‘sh vaqtni o‘tkazish madaniyati bo‘yicha bilimlarni boshqalar bilan baham ko‘rish.
Oila, maktabdan tashqari ta‘lim muassasalari, markazlar bilan maqsadli, tizimli munosabatlarni amalga oshirish.	Kasblar, inson kommunikatsiyalari dunyosida mo‘ljalni o‘lola bilish (event-menejer).

Kvest o‘yindan farqli o‘laroq, hal qilish uchun o‘quvchi oldiga muayyan muammoni qo‘yadi. O‘quvchi ma‘lum vazifalarni bajarmaguncha kvest natijalarini topa olmaydi. Kvest o‘yini – bu muammolar, topishmoqlar, boshqotirmalar, to‘siqlardan o‘tish, yakuniy mahsulotni topish yoki yaratish orqali ifodalanishi mumkin bo‘lgan ketma-ket harakatlar zanjiri. Kvest vazifalari turlicha bo‘lishi mumkin: faol, ijodiy, intellektual.

Kvest – bu maxsus tashkil etilgan maydonda bir necha kishidan iborat jamoa uchun qiziqarli o‘yin. Kvest rolli o‘yinga qaraganda ancha qisqaroq. U bir soatdan bir yarim soatgacha davom etishi mumkin. Kvest o‘yini juda kichik va katta maydonda ham o‘ynash mumkin. Har bir kvest o‘rganish va dam olish elementlarini birlashtiradi.

Ayniqsa, to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonida kvest-darslaridan samarali foydalanish mumkin. Kvest-darslari muammoli ta‘lim

texnologiyasini qo‘llash asosida o‘yinli shaklda amalga oshadi. Mazkur turdagi darslar quyidagi tamoyillar asosiga quriladi: muammolarning mavjudligi (materialni o‘zlashtirish o‘quvchini ajablantirsa va qiziqish uyg‘ota olganda samarali amalga oshadi); qiziqarli tavsifga egalik (bilimlarni o‘zlashtirish quvonch olib kelishi kerak); hayot va o‘quvchilarning istaklari bilan aloqadorlik (bilimlarni o‘zlashtirish juda ko‘p jihatdan o‘quvchilarining faolligi va qiziqishiga bog‘liq); syujet, topshiriq va muvaffaqiyatga erishish mezonlari.

Tadqiqot doirasida event va kvest texnologiyalarining o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini tashkil etish va o‘tkazishga doir imkoniyatlarini gorizontal va vertical yo‘nalishlarda boyitish orqali mualliflik yondashuviga asoslangan “O‘lkashunoslik” o‘yin-texnologiyasi ishlab chiqildi. Yuqori sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari bevosita hisobga olinadigan mazkur o‘yin-texnologiyasi hududga xos tarixiy-madaniy merosni faol o‘rganish va tadqiq etish imkonini oshirishi bilan ahamiyatlidir.

“O‘lkashunoslik” o‘yin-texnologiyasi integrativ model ko‘rinishiga ega bo‘lib, rolli o‘yinni loyihalash; tayyorgarlik ko‘rish; o‘yinni o‘tkazish algoritmini ishlab chiqish va o‘yinli harakat refleksiyasi uyg‘unligini ta‘minlash asosida amalga oshadi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

“O‘lkashunoslik” o‘yin-texnologiyasini tashkil etish va o‘tkazishning integrativ modeli

Tarixiy zamon va makon			
Vazifalar			
Kognitiv	Ijodiy	O‘yinli	
O‘yin ssenariysi			
O‘yin manzarasi ba vaziyatni tasvirlash	Asosiy rollar, ularning imiji ba uyushmalarini tasvirlash	O‘yin qoidalari	Madaniyat, iqtisodiyot, ilm-fan ba boshqalar haqidagi ma‘lumotlar
O‘yin bosqichlari			
I – loyihalash	II – tayyorgarlik	III – algoritmik	IV – reflektiv
Kvestlar			
birinchi bosqich kvestlari	Ikkinchi bosqich kvestlari	Uchinchi bosqich kvestlari	To‘rtinchi bosqich kvestlari
O‘yin natijalarini baholash mezonlari			

Birinchi bosqichda o‘yin va uning vazifalari aniqlanadi, syujet izlanadi va rollar tavsiflanadi. Har bir o‘yin oxirida o‘yin harakati tahlil qilinadi, o‘yinning ijobiy va salbiy tomonlari aniqlanadi. Tahlil natijalari kelgusida yangi o‘yinni ishlab chiqishda hisobga olinadi.

Birinchidan, o‘ylab topilgan o‘yin mantiqiy konstruksiya bo‘lib qolmasligi kerak, lekin bir butun va to‘liq bo‘lishi kerak, bu juda ko‘p turli vaziyatlarga, shu jumladan oldindan belgilanmagan holatlarga imkon berishi kerak. O‘ylab

topilgan o'yindagi voqelik qanchalik to'liq va katta bo'lsa, shuncha yaxshi. Ikkinchidan, o'yinning davomiyligi aniqlanadi. Uchinchidan, o'yinni o'tkazish shakli aniqlanadi: ochiq havoda yoki sinf xonasida. Agar o'yin ochiq havoda o'tkazilsa, u holda o'yin o'tkazilish joyining asosiy jihatlari aniqlanadi. To'rtinchidan, taxminiy o'yin ishtirokchilar soni aniqlanadi.

